

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

## KIRUVCHILAR UCHUN

### "XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.

3461FSQE\*Familiya Ism (Viloyat)  
\*JAVOBLAR

Namuna: 3461FSQE\*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)\*BAADACCCAACA...

#### Izoh:

- 1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida **O', G'** harflari qatnashsa ularni o'rniga **U** va **G** harflarini ishlating.
- 2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.
- 3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. **15.07.2019-17.07.2019**
- 4) Repetitsion testning sms javoblari soat **21:00** gacha qabul qilinadi.

Natijalar: Har kuni **@repetitsiontestuz** kanalida soat **22:00** e'lon qilinadi

## SAVOLLAR KITOBI

999996

BLOKLAR:

Fizika (3.1)

Matematika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

## DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idiagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

**FIZIKA**

1. Qiyaligi  $30^0$  bo'lgan qiya tekislikda turgan brusok turtib yuborildi va ma'lum H balandlikka chiqib, yana qaytib tushdi. Chiqish va tushishdagi tezlanishlar nisbatini toping. Ishqalanish koeffitsiyenti 0,2 ga teng.  
A) 3,02. B) 2,06. C) 4,05. D) 1,05.

2. Massasi M bo'lgan aerostat doimiy  $v$  tezlik bilan pastga tushmoqda. Undan qanday massali yuk olib tashlansa, huddi shunday tezlik bilan yuqoriga ko'tariladi. Bunda havoning qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Arximed kuchi Q ga teng. g-erkin tushish tezlanishi.  
A)  $(Mg-Q)/g$ . B)  $2(Mg-Q)/g$ .  
C)  $Q/g$ . D)  $2Q/g$ .

3. Jismning boshlang'ich tezligi  $20 \text{ m/s}$  ga teng. Jismga faqat muhitning qarshilik kuchi ta'sir qiladi deb hisoblab, uning tezligi to'rt marta kamaygandan toki to'xtagunga qadar qancha masofani o'tishini aniqlang (m). Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Qarshilik koeffitsiyenti  $2 \text{ kg/s}$  ga teng. Jism massasi  $2 \text{ kg}$ .  
A) 15. B) 5. C) 20. D) 6.

4. Proton elektr maydonida  $6,4 \cdot 10^{11} \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanishi uchun elektr maydon kuchlanganligi qanday ( $\text{kV/m}$ ) bo'lishi kerak?  
A) 6,64. B) 11,72. C) 3,32. D) 13,28.

5. Proton  $80 \text{ km/s}$  tezlik bilan harakatlanmoqda. Uni orqaga qaytarish uchun qarshi tarafdan  $a$ -zarra otilmoqda. Protonning oxirgi tezligi modul jihatdan boshlang'ich tezligiga teng bo'lishi uchun  $a$ -zarranring boshlang'ich tezligi ( $\text{km/s}$ ) qanday bo'lishi kerak?  $m_a = 4m_p$ .  
A) 40. B) 20. C) 37,5. D) 33,3.

6. Oyda jism tik erkin tusha boshladi. Jism tezligi  $2 \text{ m/s}$  ga yetganda qancha masofa o'tgan bo'ladi ( $\text{m}$ )?  $g=1,67 \text{ m/s}^2$ .  
A) 1,2. B) 8,35. C) 1. D) 12.

7. Avtomobil to'g'ri chiziqli tekis harakatlanmoqda. Vaqt  $t=-3 \text{ s}$  bo'lganida koordinatasi  $x=900 \text{ m}$  bo'lgan. Agar avtomobil tezligi  $\vartheta = -15 \text{ m/s}$  bolsa, qachon uning koordinatasi nol bo'ladi ( $\text{s}$ )?  
A) 60. B) 63. C) 57. D) 52.

8. Qanday shartlar bajarilganda moddiy nuqta to'g'ri chiziqli tekis harakatni namoyon etadi?  $a_n$ -normal tezlanish,  $a_t$  - tangensial tezlanish.  
A)  $a_n=0$ ,  $a_t=const \leq 0$ . B)  $a_n=0$ ,  $a_t=0$ .  
C)  $a_n=const$ ,  $a_t=0$ . D)  $a_n=0$ ,  $a_t=const < 0$ .


9. Absolut qora jismning nur chiqarish qobiliyati nimalarga bog'liq?  
A) temperatura va chastotaga.  
B) temperaturaga.  
C) chastotaga.  
D) temperatura va chastotaga bog'liq emas.

10. 1 T magnit maydon induksiyasi x koordinata o'qi bo'ylab, metall chizg'ich y o'qi bo'ylab yo'nalgan, chizg'ich z o'qi bo'ylab  $15 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanmoqda. Chizg'ichda vujudga keladigan induksion elektr maydon kuchlanganligi ( $\text{V/m}$ ) nimaga teng?  
A) 7,5. B) 30. C) 15. D) 3,75.

11. Ikki mol inert gazi ( $M=20 \text{ g/mol}$ ) isitkichdan  $Q_1$  issiqlik olib, izobarik kengaymoqda, so'ngrasovutkichga  $Q_2$  issiqlik berib, izoxorik ravishda dastlabki temperaturagacha sovutilmoqda.  $Q_1 / Q_2$  nisbat topilsin.  
A) 0,66. B) 1,67. C) 1. D) 1,33.


12. Yopiq idishda suv va to'yinmagan bug' bor. Harorat ortishi bilan nisbiy namlik.....  
A) oldin kamayib, keyin ortadi. B) o'zgarmaydi.  
C) kamayadi. D) ortadi.

13. Bir atomli gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik kengaydi. Ideal gazning boshlang'ich temperaturasi oxirgi temperaturasiga teng. Gaz to'liq kengayishda  $21 \text{ kJ}$  ish bajargan. Butun jarayonda gaz ichki energiyasi qanchaga o'zgargan ( $\text{kJ}$ )?



- A) 16. B) 0. C) 12,6. D) 14.

14. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik so'ngra izobarik siqildi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng (rasmga qarang). Gazning to'liq siqilishda A ish bajarilsa, izobarik siqishda gaz molekulalari qancha ish bajaradi?



- A)  $3A/5$ . B)  $0,3A$ . C)  $-2A/5$ . D)  $0,2A$ .


15. Normal sharoidta geliy gazining ( $4 \text{ g/mol}$ ) zichligi  $\text{g/m}^3$  qanday?  $V_{n.sh}=22,4 \text{ litr/mol}$ .

- A) 190. B) 179. C) 167. D) 150.

16. Kepler trubasi okulyarining fokus masofasi  $10 \text{ cm}$ . Okulyar bilan obyektiv orasidagi masofa  $2,1 \text{ m}$ . Teleskopning kattalashtirishini toping.  
A) 10. B) 20. C) 30. D) 5.


17.  $60 \text{ m}$  uzoqlikdagi daraxt  $1^0$  burchak ostida ko'rinxilmoqda. Daraxtning balandligi ( $\text{m}$ ) qanday?  $\pi = 3$ ;  $\sin \alpha \approx \alpha$ .  
A) 2,3. B) 1,0. C) 2,6. D) 2,4.

18. Quyida keltirilgan sxemadan foydalanib K va L nuqtalar orasida umumiylar qarshilikni aniqlang.



- A)  $9R$ . B)  $R$ . C)  $3R$ . D)  $6R$ .

19. I va A nuqtalar orasidagi qarshilik qiymati qaysi oraliqda yotadi ( $\Omega$ )?  $R_1 = \dots = R_8 = 46 \Omega$ ,  $R_9 = \dots = R_{14} = 151 \Omega$ ,  $R_{15} = R_{16} = R_{17} = 1151 \Omega$ .



- A) [46; 151]. B) (0; 46).  
C) [2262; 22262]. D) [151; 2262].

20. Suvning qayiq harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti  $20 \text{ kg/s}$  ga

teng. Qayiq impulsi 15 m masofada qanchaga o'zgaradi ( $\text{kg m/s}$ )?  
 A) 300. B) 150. C) 100. D) 200.

21. Massasi 0,3 kg bo'lgan metall sharcha yer sirtidan gorizontga nisbatan  $\alpha = \pi / 6$  burchak ostida otildi va otlish nuqtasidan 0,2 m uzoqlikda joylashgan vertikal devor bilan absolut elastik to'qnashdi. Bunda sharcha impulsining o'zgarish moduli 2,6 kg/m/s ga teng bo'ldi. Sharchaning boshlang'ich tezligini toping (m/s).  $\sin\alpha = 0,5$ ,  $\cos\alpha = 0,87$ .  
 A) 2,5. B) 5. C) 8,7. D) 4,33.


22. Suvda bir xil chuqurlikda bo'lgan havo pufakchalari ichidagi bosim eng katta radiuslisi qanday bo'ladi?  
 A) chuqurlikka bog'liq. B) eng kichik.  
 C) eng katta. D) bir xil.

23. Amplitudasi 2,2 cm bo'lgan prujinali mayatnikda yuk muvozanat vaziyatidan boshlab siljishi ikkinchi marta 1,2 cm ga teng bo'lgan vaqt ichida qanday yo'lni (cm) bosib o'tadi?  
 A) 10. B) 3,2. C) 7,6. D) 8,8.

24. O'zgaruvchan tok tarmog'iga ketma-ket rezistor ( $R=10 \Omega$ ), kondensator ( $C=13 \text{ mF}$ ) va induktiv g'altak ( $L=130 \text{ H}$ ) ulangan. Tokning siklik chastotasi  $\omega=0,77 \text{ rad/s}$  bo'lgan paytdagi quvvat koeffitsiyentini aniqlang.  
 A) 0,41. B) 0,87. C) 0. D) 1.

25. Dastlab cho'zilmagan, bikrili  $k=131 \text{ N/m}$  bo'lgan prujinaga  $m=131 \text{ g}$  yuk osib qo'yib yuborilganda A amplitudali garmonik tebranishlar yuzaga keldi. Prujina maksimal cho'zilganda yukning balandligi  $h=0$  deb hisoblab, yukning kinetik energiyasi minimal bo'lgan paytda uning tezlanishi qanday bo'ladi ( $\text{m/s}^2$ )?  
 A) 5,4. B) 4,9. C) 0. D) 9,8.

26. Rasmida vakuumli dioddagi tok kuchining anod kuchlanishga bog'lanish grafigi keltirilgan. Diodning to'yinsh tokini aniqlang (A).



A) 4. B) 0,04. C) 0,004. D) 0,4.

27. Uran  $^{234}_{92}\text{U}$  izotopidagi to'rtta  $\beta$  yemirilishga uchraganidan so'ng yadrodag'i nuklonlar soni nechtaga teng bo'ladi?  
 A) 200. B) 230. C) 189. D) 234.

28. Spini  $s=3/2$  bo'lgan zarralar?  
 A) foton, glyuon.  
 B)  $\Omega$ -giperon,  $\Delta$ -rezonans.  
 C)  $\pi$ -mezon, K-mezon,  $\eta$ -mezon.  
 D) elektron, proton, neytron, neytrino, myuon, kvark.

29. Mezon massasi nimaga teng bo'la oladi?  
 A) 1 proton massasidan 2 ta proton massasigacha.  
 B) ixtiyoriy bo'lishi mumkin.  
 C) 0 dan 1 elektron massasigacha.  
 D) 1 elektronidan 1 proton massasigacha.

30. Jamshidning yoshi 20 da, Zokirning yoshi 10 da edi. O'zga sayyoraliq Zokirni o'z kosmik kemasida  $\frac{\sqrt{21}}{5} c$  tezlikda qanchadir vaqt sayr qildirib keldi. Uyga qaytgach Zokir 12 yoshda bo'lsa, Jamshid necha yoshda bo'ladi?  
 A) 12. B) 25. C) 30. D) 10.

31. 2012-2011-2009-2014 ni hisoblang.

A) 6 B) -6 C) 23 D) -4

32.  $1 + \frac{20}{1+ \frac{20}{1+ \frac{20}{...}}}$  ni hisoblang.

A) 6 B) 10 C) 8 D) 5

33. Agar  $16 \leq x \leq y \leq z \leq t \leq 25$  bo'lsa,  $\frac{x}{y} + \frac{z}{t}$  ifodaning eng kichik qiymati qanday bo'ladi?

A) 0,2 B) 0,8 C) 1,6 D) 0,4

34. Agar  $x < z < y$  bo'lsa, ifodani soddalashtiring  
 $|x-y| - |z-y| - |z-x|$

A) 0 B)  $2z - 2y$  C)  $2y - 2z$  D)  $2y - 2x$

35. Agar  $x_1 \text{ va } x_2$   $4x^2 + 6x - 14 = 0$  kvadrat tenglamaning ildizlari bo'lsa,  $x_2 + x_2 x_1 + x_1$  qiymatini toping.

A) 5 B) -5 C) -4 D) 2

36. Agar uchburchakning tomonlari 24,32 va 40 ga teng bo'lsa, uchburchak ichiga va unga tashqi chizilgan aylanalar markazlari o'rtasidagi masofani topilsin.

A)  $5\sqrt{2}$  B)  $4\sqrt{5}$  C) 4 D)  $\sqrt{6}$

37. ABC uchburchakda  $\frac{13\sqrt{2}}{4}$  ga teng va

AC tomon bilan  $30^\circ$  burchakni tashkil qiladigan AK mediana o'tkazilgan. Agar  $\angle BCA = 45^\circ$  bo'lsa, BC ni toping.

A)  $4\sqrt{3}$  B) 5,5 C)  $\frac{11\sqrt{2}}{3}$  D) 6,5

38. To'g'ri to'rtburchakning bo'yи kvadratning tomonidan 8 m uzun, eni esa Shu kvadratning tomonidan 4 m kalta. Kvadrat tomonini  $x$  bilan belgilab, to'rtburchak perimetri va yuzi uchun ifoda tuzing.

A)  $P = 4x + 8$ ;  $S = 4(x + 8)$   
 B)  $P = 4x + 4$ ;  $S = x^2 + 4x - 18$   
 C)  $P = 4(x + 2)$ ;  $S = (x + 8)(x - 4)$   
 D)  $P = 4x + 2$ ;  $S = (x + 8)(x - 4)$

39.  $\begin{cases} x^2 + y^2 = 2(yx + 2) \\ x + y = 6 \end{cases}$  sistemani yeching.

A)  $(-4; -2), (-2; -4)$  B)  $(4; 2), (2; 4)$   
 C)  $(-3; -2), (-2; -3)$  D)  $(3; 2), (2; 3)$

40. Tenglamalar sistemasini yeching  $\begin{cases} \sqrt{x^2 + 8x + 16} = x + 4 \\ \sqrt{x^2 - 8x + 16} = 4 - x \end{cases}$

A)  $x \leq 4$  B)  $-4 < x < 4$   
 C)  $x \geq -4$  D)  $-4 \leq x \leq 4$

41. Tengsizliklar sistemasi qancha butun yechimga ega

$$\begin{cases} 3 - 4x > 5, \\ 2 + 3(x - 1) \leq 4x + 5 \end{cases} ?$$

A) 4 B) 1 C) 3 D) 6

42.  $(x - 2)\sqrt{9 + 2x - x^2} \geq 0$  tengsizlikni yeching.

A)  $[3; \infty)$  B)  $[2; \infty)$   
 C)  $\{-1\} \cup [2; \infty)$  D)  $\{-1\} \cup [2; 3]$

43.  $(x + 2) + (x + 5) + (x + 8) + \dots + (x + 29) = 255$  tenglamani yeching.

A) 5 B) 14 C) 10 D) 20

44.  $2^{x-1} + 2^{x-2} + 2^{x-3} = 448$  tenglamani yeching.

A) 10    B) 9    C) 11    D) 7

45. Tenglamani yeching  $\lg\left(\frac{1}{2} + x\right) = \lg\frac{1}{2} - \lg x$ .

A)  $\frac{1}{2}$     B) 2    C) -1    D) 1

46. Agar  $A(2; -2); B(3; 1)$  bo'lsa,  $AB$  kesma o'rtasi koordinatalarini toping.

A) (-0,5; 2,5)    B) (-2,5; 0,5)  
C) (2,5; -0,5)    D) (0,5; 2,5)

47. A nuqta ikki yoqli to'g'ri burchakning yoqlaridan 6 va 8 ga teng uzoqlikda yotsa, undan ikki yoqli burchakning qirrasigacha bo'lgan masofa qanday bo'ladi?

A) 9    B) 8    C) 12    D) 10

48. Asosi  $2\sqrt{5}$  tomonli muntazam oltiburchak bo'lgan prizmaning hamma yon yoqlari – kvadrat. Prizmaning katta diagonalini toping.

A)  $4\sqrt{5}$     B) 12    C) 10    D)  $3\sqrt{5}$

49. Muntazam o'nikkiburchakli piramidaning apofemasi  $2\sqrt{2}$  ga teng, barcha yon yoqlari asos tekisligiga  $45^\circ$  burchak ostida og'ishgan. Uning hajmini toping.

A)  $64-32\sqrt{3}$     B)  $64-30\sqrt{2}$   
C)  $68-48\sqrt{2}$     D)  $64-32\sqrt{2}$

50. Balandligi asosining diametriga teng bo'lgan silindrning yon sirti  $16\pi$  ga teng. Silindr asosining diametrini toping.

A) 1    B) 4    C) 2    D) 8

51. Konusga radiusi 2 bo'lgan shar ichki chizilgan. Agar konus yasovchi va uning balandligi orasidagi burchak  $30^\circ$  ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, konusning yon sirtini toping.

A)  $4\pi$     B)  $24\pi$     C)  $16\pi$     D)  $18\pi$

52. Juft funksiyani ko'rsating.

A)  $y = \sin x$     B)  $y = \operatorname{tg} x$   
C)  $y = \frac{x-1}{x^2}$     D)  $y = \frac{x^2+x^4}{2}$

53. Radiusi 6 sm bo'lgan metall shardan eng katta hajmdagi silindr kesib yasaldi. Bu silindr asosining radiusini toping.

A) 3    B)  $\sqrt{6}$     C)  $2\sqrt{6}$     D) 4

54.  $A(7; -5)$  nuqtadan o'tuvchi va abssissa o'qiga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasini toping.

A)  $x = -7$     B)  $x = 5$     C)  $x = -5$     D)  $x = 7$

55.  $\cos 2227^\circ 30'$  ni hisoblang.

A)  $\frac{\sqrt{2}+\sqrt{2}}{4}$     B)  $\frac{\sqrt{2}-\sqrt{2}}{4}$   
C)  $\frac{\sqrt{2}-\sqrt{2}}{2}$     D)  $\frac{\sqrt{2}+\sqrt{2}}{2}$

56. Ushbu  $\cos^2 \frac{x}{4} > \frac{\sqrt{2}}{2} + \sin^2 \frac{x}{4}$  tengsizlikni yeching.

A)  $\frac{\pi}{8} + 2\pi n < x < \frac{7\pi}{8} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}$   
B)  $\frac{\pi}{8} + \pi n < x < \frac{7\pi}{8} + \pi n, n \in \mathbb{Z}$   
C)  $-\frac{\pi}{2} + 4\pi n < x < \frac{\pi}{2} + 4\pi n, n \in \mathbb{Z}$   
D)  $\frac{\pi}{4} + 2\pi n < x < \frac{7\pi}{4} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}$

57. Yigirmata mashina 20 kunda 20 tonna benzin ishlatsa, o'nta mashina 10 kunda necha tonna benzin ishlataldi?

A) 15    B) 10    C) 5    D) 20

58.  $A = \{1; 3; 5; 6; 8; 9; 10; 11\}$  va  $B = \{5; 6; 7; 8; 10; 11\}$  to'plamlar berilgan.  $A \cup B$  to'plam elementlar sonini toping.

A) 11    B) 5    C) 9    D) 8

59. Quydagi javoblardan qaysi biri bo'sh to'plam.

A)  $A = \{x : x^2 \leq 0, x \in \mathbb{R}\}$     B)  $A = \{x : x^2 \leq 0, x \in \mathbb{R}\}$   
C)  $A = \{x : x^2 \leq 0, x \in \mathbb{R}\}$     D)  $A = \{x : x^2 < 0, x \in \mathbb{R}\}$

60. Surat va maxraji 42 dan katta bo'lмаган turli tub sonlardan iborat bo'lgan nechta oddiy kasr mavjud?

A) 66    B) 52    C) 156    D) 132

## ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan har qancha izzat qilsa arziyidigan va bu izzatga o'zining jafokashligi g'ayrati farosati el-yurti uchun qayg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi. Mazkur gapda nechta vergul qo'yilishi kerak?

A) 4 ta    B) 5 ta    C) 6 ta    D) 7 ta

62. Qaysi asarlar eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan dastlabki namunalardir?

1. «Tafsir». 2. «Xusrav va Shirin». 3. «Guliston». 4. «O'g'uznomá». 5. «Muhabbatnomá».

A) 1,2,3,4,5    B) 1,3,5    C) 2,4,5    D) 1,4,5

63. Amu Buxoro kanali, Katta Farg'ona kanali, Konstitutsiya kuni, O'zbekiston Milliy Universiteti, Xotira va qadrlash kuni, Oliy Xo'jalik sudi

Imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan so'zlar miqdorini toping.

A) 4ta    B) 2ta    C) 5ta    D) 3ta

64. Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan, Yerda qolsang, oftob bo'lib kulmagaysan, Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan?

Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun? Ushbu she'riy parchada olmoshning necha turi qatnashgan?

A) 1    B) 4    C) 3    D) 2

65. Do'ppisini osmonga otmoq iborasiga zid bo'lgan so'zni toping.

A) hayratlanmoq    B) g'azablanmoq  
C) xursand    D) xafa

66. Qaysi javobda leksik omonimlar berilgan?

A) ovqat, bel    B) bezak, ziynat  
C) chang, zang    D) qaldirg'och, kombayn

67. Qaysi gap tarkibida vazifadosh ko'makchi qo'llangan?

A) Qalam-la men to'qiyman qo'shiq.

B) Bu ishga qadam qo'yishdan ilgari bir karra sizning oldingizdan o'tib, ra'yingizni bilishga to'g'ri keldi.

C) Devor usti yomg'irdan iviy boshladi.

D) A. Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berilgan.

68. Tobe va hokim qismi yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvi so'z birikmalarini belgilang.

1) bepoyon paxtazor; 2) g'oliblik uchun kurashish; 3) chiroylig gapirmoq; 4) beqiyos o'lka; 5) yozgi kiyim; 6) birga ishlamoq; 7) o'tloq ko'm-ko'k.

A) 1, 3, 5    B) 2, 4, 6, 7  
C) 1, 3, 5, 6, 7    D) 2, 4, 5

69. Ikkinch bo'g'inida u yoziladigan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) muq..m, muh..t    B) mutr..b, mual..m  
C) mushk..l, mug..z    D) mushf..q, muh...m

70. Quyida berilgan gapda nechta so'z birikmasi bor?

Kecha Hamida ota-onalar majlisi bo'lishi to'g'risida maktabidan qog'oz olib keldi.  
A) 4 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 6 ta

71. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirganda qaysi tinish belgisi yo'qolib ketmaydi?  
A) ko'chirma gapdan keyingi tire  
B) muallif gapidan keyingi ikki nuqta  
C) ko'chirma gapning boshi va oxiridagi qo'shtirnoq  
D) muallif gapidan keyingi so'roq

72. Yomg'ir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yog'ini. Ushbu parcha qaysi uslubga mansub?  
A) badiiy uslub B) rasmiy uslub  
C) ilmiy uslub D) publisistik uslub

73. Qaysi qatordagi besh morfemadan iborat yasama so'zning ikkinchi yasovchi qo'shimchasi fonetik o'zgarishga uchrangan?  
A) mashhurligimizga B) so'roqsizlarcha  
C) sarg'aytirdik D) g'ildiragini

74. "Devon-u lug'otit turk" asarida *eng yengili* deb qaysi til aytilgan?  
A) qarluq tili  
B) hoqoniyligida yashovchilarining tili  
C) o'g'iz tili  
D) yag'mo, tuxsi tili

75. Qaysi qatorda vositali to'ldiruvchili ergashgan qo'shma gap mavjud?  
A) Shundan ehtiyyot bo'lingki, birovning ota-onasini haqorat qilgan odam o'zining ota-onasini ham haqoratlagan bo'ladi  
B) Shuni unutmangki, do'stlar bilan suhbat qurmoq gullar orasida sayr qilmoqdan xushdir  
C) Shuni anglamoq kerakki, ota-ona uchun farzanddan ko'ra yaqinroq kimsa yo'q  
D) Shuni hamisha yodingizda saqlangki, birovga yolg'on gapirish juda katta gunohdir

76. Quyidagi so'zlardan nechtasi imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan?  
Jaholat, hokisor, mutaxasis, hoxish, zahmat, aynala, taxsimot, asil, bepayon.  
A) 4 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 5 ta

77. Quyida berilgan gaplarda olmosh qaysi gap bo`lagi bo`lib kelganini aniqlang.  
1) Bilimdon o`z bilimi tufayli ofatlardan omon qoladi.  
2) U kishi o'tirganlar bilan qo'l berib so'rashib chiqdi.  
3) Ko`p harakat qilgan qolib, yutuq ham o'shaniki bo'ldi.  
4) Biz kelajaki buyuk yurt farzandimiz.  
a) to'ldiruvchi, b) aniqlovchi, c) ega, d) kesim  
A) 1-b;2-c;3-c;4-c B) 1-a;2-c;3-b;4-c  
C) 1-c;2-c;3-b;4-c D) 1-b;2-b;3-d;4-c

78. Qator undoshli so'zlar berilgan javobni belgilang.  
A) stol, do'st, daraxt  
B) ikki, million, metall  
C) traktor, paxta, chaqqon  
D) paxta, nimcha, o'simlik

79. Quyida berilgan so'z birikmalaridan qay biri turg'un birikma bo'ladi?  
1) boshiga yetdi; 2) qulog'iga quydi; 3) o'z yog'ida qovurildi; 4) yaxshi ko'radi.  
A) 3,4 B) 2,3,4 C) 2,4 D) 1,2,3,4

80. Quyidagi qaysi yasama so'zda lab undoshlari ishtirok etgan?  
A) bilimdon B) oshiq C) gulzor D) daraxt

81. O'g'lining uchinchi marta olib kelgan pulini olovga otmoqchi bo'lganida, bola uning qo'liga yopishib, yondirmasligini so'raydi. Ushbu gapda necha o'rinda egalik qo'shimchasi ishtirok etgan?  
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6

82. Sarv-u gul-u lola xaridori bor,  
Lek o'tinning dag'i bozori bor...  
Ushbu parcha qaysi asardan?

A) "Farhod va Shirin" B) "Sab'ayi sayyor"  
C) "Layli va Majnun" D) "Hayrat ul-abror"

83. Qanday asarlar materialning tabiatini, tasvirlanayotgan voqealarning haqqoniyligi, badiiy to'qimaning yo'qligiga ko'ra ilmiy asarlarga yaqin turadi?

A) kundaliklar B) ilmiy-ommabop asarlar  
C) tarixiy asarlar D) memuar asarlar

84. Bobur "Boburnoma"da "Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandta podsholiq qilibtur, alarming qabri ul madrasadadur" deb qayerni aytgan?

A) Chaqarda solingen madrasa B) Muqatta  
C) Chilsutun D) Laqlaqa

85. H.Olimjonning sahna asarlarini toping. 1."Ikki qizning hikoyasi", 2."Muqanna", 3. "Zaynab va Omon", 4."Oygul bilan Baxtiyor", 5."Jinoyat", 6."Semurg' yoki Parizod va Bunyod"  
A) 1,6 B) 1,3 C) 2,5 D) 2,4

86. M. Osimning "Zulmat ichra nur" asarida qaysi maqol qo'llanilgan?

A) "Qarg'a qarg'ani ko'zini cho'qimaydi"  
B) "Qush tili qush biladi"  
C) "Kambag'alman desang ko'chib boq"  
D) "Kambag'alni tuyani ustida ham it qopadi"

87. "Ota-onamdan judo bo'lganim tufayli ko'z yoshi to'kaman. Kimki bu ikkisidan ayrilib yashay olsa, uning uchun (bosha) musibatlar arzimagan narsa". Ushbu parcha qaysi asardan?

A) "Devonu lug'ot it-turk" B) "Yatimat ad-dahr"  
C) "Qutadg'u bilig" D) "Hibatul -haqoyiq"

88. Qaysi janrning mavzusi chegaralangan?

A) g'azal B) ruboiy C) tuyuq D) qit'a

89. "Kim nimani yaxshi ko'rар", "Sanoye nafisa" maqlolalari muallifini toping.

A) So'fizoda B) A.Avloniy  
C) Behbudiy D) A.Qodiriy

90. O'lmas Umarbekovning hikoyalar to'plamini toping. 1. "Qishlog'imiz kishilari", 2. "Sevgim, sevgilim", 3. "Yulduzlar", 4. "Charos", 5. "Cho'li iroq", 6. "Oq qaldirg'och", 7. "Bolgar qo'shiqlari"

A) 1,3,4,7 B) 1,2,4,7  
C) 1,2,4,6 D) 1,3,5,6

